

BOSHLANG'ICH TA'LIMGA QO'YILAYOTGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Zulpiqorova Durdona Odiljon qizi

Andijon viloyati, Andijon tumani 17-maktab

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasining" ahamiyati va ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan zamonaviy yondashuvlar hamda o'quvchilarning o'qish va tushunish darajasini oshirish yuzasidan fikrlar yuritilgan. Boshlang'ich ta'lim, bolalarning kelgusi ta'lim jarayonidagi ilk qadamlarini tashkil etadi va ularning yoshiga mos ravishda rivojlanishi uchun muhim asosni belgilaydi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi, ta'lim mazmuni, zamonaviy yondashuvlar, bilish, kompetensiya, o'qish va tushunish darajasi, o'qish savodxonligi.

Аннотация: В статье обсуждается важность «Концепции начального образования» и современные подходы к содержанию образования, а также идеи по улучшению чтения и понимания учащимися. Начальное образование является первым шагом в будущем образовании детей и закладывает важную основу для их развития в соответствии с возрастом.

Ключевые слова: концепция начального образования, содержание образования, современные подходы, знания, компетентность, уровень чтения и понимания, грамотность чтения.

Abstract: The article discusses the importance of the "Concept of Primary Education" and modern approaches to the content of education, as well as ideas for improving the reading and understanding of students. Primary education is the first step in children's future education and sets an important foundation for their age-appropriate development.

Keywords: the concept of primary education, the content of education, modern approaches, knowledge, competence, the level of reading and understanding, reading literacy.

O'qish savodxonligini oshirish o'qish darslarini tashkil etilishi bilan bo'g'liq.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikmamalakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda «O'qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va

bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlool va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

Respublikamizda "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi" hamda boshlang'ich ta'lim uchun o'quv dasturlari va o'quv-metodik majmualarda o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonlikni rivojlantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish, o'qituvchilarni o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda ro'yobga chiqarish" kabi muhim vazifalar belgilab berildi[1]. Bu esa, o'qish darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish, tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirishning ijtimoiypedagogik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish,

jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir[2]. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlool va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan[3]. Asar tahlili jarayonida o'qituvchi savollariga o'quvchilarning o'z so'zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqea - hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo'lmasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o'quvchilarning o'qilgan matn mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi. Negaki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi. Ta'kidlash joizki, o'quvchilarning

o'zlarini ham savol tuzishga o'rgatishlozim. K.D.Ushinskiy qayd etganidek, to'g'ri

qo'yilgan masalaning o'zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o'quvchining dars mavzusi bilan bog'liq jihatlariga e'tibor berishi asarda tasvirlangan voqea-hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo'l ochadi. Shuning uchun ham matn yuzasidan savol tuzish o'quvchini ongli va tushunib o'qishga yo'llaydi. Uning o'ziga xos xususiyatini o'quvchilarni badiiy adabiyotning

sehrli olamiga olib kirish orqali dunyoqarashlarini milliy istiqlool mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlool, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan

ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlool, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularini uyg'otishdir.

Ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yilayotgan xalqaro baholash talablari bo'yicha o'quvchilarning quyidagi bilish darajalari baholanadi:

Erkin va ravon o'qish;

Matn ichidagi ma'lumotlarni olish va foydalanish;

Tegishli matnni qidirish va saralash;

So'zma-so'z ma'nosini tasvirlash;

Shakl va mazmun ustida mulohaza yuritish;

Sifat va ishonchlilikni baholash;

Qarama-qarshiliklarni aniqlash va qayta ishlash;

Xulosalarni umumlashtirish va hosil qilish.

Ushbu bilish darajalari asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlay olish, xulosalar chiqarish, taqqoslash, bir yoki bir nechta matnni to'liq va batafsil tushunish, bir nechta matnlardan ma'lumotlarni birlashtirish kabi fikrlash operatsiyalari shakllanadi.

Boshlang'ich ta'lim, bolalarning kelgusi ta'lim jarayonidagi ilk qadamlarini tashkil etadi va ularning yoshiga mos ravishda rivojlanishi uchun muhim asosni belgilaydi. Bugungi kunda jamiyat va iqtisodiyotning zamonaviy o'zgarishlari boshlang'ich ta'limga qo'yilayotgan talablarni yanada yuqori darajaga ko'tarmoqda. Quyida boshlang'ich ta'limga qo'yilayotgan zamonaviy talablar haqida asosiy nuqtalarni keltirib o'tamiz:

Integratsiyalashgan ta'lim yondashuvi. Zamonaviy ta'lim jarayonida predmetlarning integratsiyasi ko'zda tutilmoqda. Bu usul o'quvchilarga bir nechta fanlar bo'yicha bilimlarni birlashtirish imkonini beradi va muammolarni yechish jarayonida ko'proq ijodkorlik va analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bola markazida ta'lim. O'sish va rivojlanish jarayonida bola shaxs sifatida e'tiborga olinishi muhim. Ta'lim jarayonida bolalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va individual xususiyatlariga mos yondoshuvlar qo'llanilishi zarur. Bu, o'quvchilarning o'z-o'zini anglashiga va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar. Zamonaviy ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Kompyuterlar, tablets, interaktiv ta'lim dasturlari va internet resurslari yordamida o'quv jarayonini yanada jozibador va samarali qilish mumkin. Bu texnologiyalar bolalarning o'z-o'zini o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish. Zamonaviy ta'lim jarayoni bolalarda kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. O'yin va ijodiy faoliyatlar, shuningdek, guruhda ishlash jarayonida tashabbuskorlik va hamkorlikni rag'batlantirish muhimdir. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish. Boshlang'ich ta'lim, shuningdek, bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu, bolalarning bir-birlari bilan aloqalari, jamoada ishlash, hissiy qobiliyatlar va empatiya rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Trening va o'qituvchilarning professional rivojlanishi. Ta'lim sifatini oshirish uchun o'qituvchilarning doimiy professional rivojlanishi zarur. Ularning zamonaviy pedagogik metodlar,

innovatsiyalar va o'quvchilarning ehtiyojlariga mos yondoshuvlar bo'yicha treninglardan o'tishi ta'lim jarayonining sifatini oshiradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

O'quvchilarga berilayotgan bilimlarning sifatini oshirish maqsadida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ham muhimdir. Bu, bolalarning o'z fikrlarini bildirishlari va mustaqil qarorlar qabul qilishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim talablari, bolalarning butunlay rivojlanishi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxslar bo'lishlariga yordam beradigan ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Ta'lim tizimida qo'yilayotgan yangi talablarga mos ravishda, pedagoglar va ta'lim muassasalari o'quv jarayonini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozim. Bu orqali o'quvchilar o'z imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishlari va hayotda o'z yo'llarini topishlari uchun zarur muhit yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. 6-son, 70-modda.
2. Qurbonova Maftuna, Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish ahamiyati // Xalq ta'limi, 2020. 3-maxsus son, 29-33 bet.
3. Qurbonova Maftuna, Methods for improvement of training competitions for classifications leading on the organization of independent works // Экономика и социум, 2020. №6(73), с 432-437.